

1-MODUL: NOGIRONLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Modul doirasidagi asosiy masalalar

1. *Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishning miliy va xalqaro huquqiy asoslari*
2. *Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishning davlat mexanizmlari (Ombudsman, Milliy markaz, sud, prokuratura faoliyati)*
3. *Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy mexanizmlari (Jamoatchilik nazorati, NNT faoliyati)*

1-§.Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishning miliy va xalqaro huquqiy asoslari

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish zamonaviy xalqaro huquqning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u inson qadriyat va tenglik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq. Mazkur sohada shakllangan normativ tizim ikki asosiy darajadan – xalqaro huquqiy mexanizmlar va milliy huquqiy asoslardan iborat bo'lib, ular o'zaro uyg'un holda nogiron shaxslarning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirokini kafolatlashga qaratilgan.

Xalqaro huquqiy asoslar

Nogiron shaxslar huquqlarining xalqaro normativ tizimidagi eng muhim hujjat – bu **BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (CRPD, 2006)**dir. Ushbu Konvensiya nogironlikka nisbatan ilgari mavjud bo'lgan tibbiy yondashuvdan voz kechib, uni ijtimoiy-huquqiy fenomen sifatida baholaydi va nogiron shaxsni huquqning to'laqonli subyekti sifatida tan oladi. CRPD o'zining 4-moddasida davlatlarning majburiyatlarini belgilab, quyidagilarni talab qiladi:

- nogiron shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratish;
- kamsitishni taqiqlash, oqilona moslashtirishni ta'minlash;
- to'siqlarsiz infratuzilmani rivojlantirish;

- inklyuziv ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va siyosiy ishtirokni kafolatlash.

Konvensiyaning 33-moddasi esa davlatlar ichida monitoring mexanizmlarini joriy etishni majburiy qiladi.

CRPD bilan bir qatorda, nogironlar huquqini kafolatlaydigan boshqa bir qator muhim xalqaro hujjatlar mavjud. Xususan, BMTning **“Nogiron shaxslar imkoniyatlarini tenglashtirish bo'yicha standart qoidalari” (1993)** nogironlar uchun to'siqsiz muhit yaratish, sog'liqni saqlash, rehabilitatsiya, bandlik va ta'lim sohalarida tenglik tamoyillarini belgilagan. Shuningdek, **Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989)** nogiron bolalarning maxsus ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining **159-sonli Konvensiyasi** esa nogiron shaxslarning mehnat rehabilitatsiyasi va bandligi bo'yicha davlat majburiyatlarini mustahkamlaydi.

Milliy huquqiy asoslar

O'zbekiston Respublikasida nogiron shaxslar huquqlarini himoya qilishning normativ bazasi so'nggi yillarda sezilarli darajada mustahkamlandi. Eng avvalo, 2023-yilgi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasining 57-moddasida** nogironligi bo'lgan shaxslarga alohida kafolatlar berilgan. Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishda nogironlik alomati bo'yicha kamsitishni taqiqlaydi hamda davlatning inklyuziv siyosat yuritish majburiyatini belgilaydi.

Milliy qonunchilikning asosiy hujjati — **“Nogironlar huquqlari to'g'risida”gi Qonun (2020)** bo'lib, u CRPD tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Qonunda nogiron shaxslarning huquqiy maqomi, davlat organlarining majburiyatlari, inklyuziv ta'lim, rehabilitatsiya, bandlik, transport, axborot, saylov jarayonlarida tenglik va to'siqsiz muhitni ta'minlash mexanizmlari batafsil belgilangan. Ushbu Qonun ilk bor “oqilona

moslashtirish”, “universal dizayn”, “to‘siqsizlik” kabi xalqaro-huquqiy atamalarni milliy huquq tizimiga kiritdi.

Shuningdek, **“Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazini tashkil etish to‘g‘risida Qonun” (2006)** reabilitatsiya xizmatlarini huquqiy tartibga soladi. “Aholining bandligi to‘g‘risida”gi Qonun, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Saylov kodeksi”, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar nogiron shaxslar uchun qo‘shimcha imtiyozlar va tenglik kafolatlarini belgilab beradi.

2021-yilda O‘zbekiston **CRPD**ni ratifikatsiya qilganidan so‘ng, juda ko‘plab idoraviy buyruqlar, davlat dasturlari, infratuzilmani moslashtirish bo‘yicha me‘yoriy talablar (SP va KMLar) yangilandi. Masalan,

- binolarning kirishlari;
- jamoat transporti;
- dam olish joylari;
- davlat xizmatlari markazlarida to‘siqsiz kirish standartlari joriy etildi.

Nogiron shaxslarning huquqlarini himoya qilish tizimi xalqaro-huquqiy normalar bilan milliy qonunchilik o‘rtasidagi izchil uyg‘unlikka asoslanadi. CRPD davlatlar zimmasiga majburiy xalqaro standartlarni yuklaydi, milliy qonunchilik esa ushbu standartlarni amaliyotga tatbiq etishning aniq mexanizmlarini belgilaydi. O‘zbekistonning Konstitutsiyaviy islohotlari, 2020-yildagi yangi Qonun va CRPDning ratifikatsiyasi nogiron shaxslar huquqlarini ta‘minlashda prinsipial yangi bosqich yaratdi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi – nogironlikni jamiyatdan ajratish emas, balki barchaga teng imkoniyatlar yaratish orqali inklyuziv, to‘siqsiz va adolatli ijtimoiy muhitni shakllantirishdir.

2-§. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishning davlat mexanizmlari (Ombudsman, Milliy markaz, sud, prokuratura faoliyati)

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash va ularni kamsitishdan himoya qilish davlatning asosiy ijtimoiy-huquqiy majburiyatlaridan biridir. Bu yo'nalishdagi davlat mexanizmlari O'zbekistonning Konstitutsiyasi, "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonun (2020), inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlar, xususan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (CRPD) asosida shakllangan. Tizim bir nechta institutlarning o'zaro uzviy hamkorligiga tayanadi: Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, sud organlari va prokuratura tizimi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman)

Ombudsman nogiron shaxslarning huquqlarini himoya qilishda mustaqil milliy mexanizm sifatida alohida o'rin tutadi. CRPDga muvofiq, davlat nogironligi bo'yicha monitoring olib boruvchi mustaqil institutni shakllantirishi shart. O'zbekiston ushbu majburiyatni aynan **Ombudsman** orqali bajaradi.

Ombudsmanning funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Nogiron shaxslarning huquqlari buzilishi bo'yicha murojaatlarni mustaqil ko'rib chiqish;
- ✓ Davlat organlari tomonidan kamsitish, oqilona moslashtirishni ta'minlamaslik kabi holatlarga huquqiy baho berish;
- ✓ Tekshiruvlar va monitoringlar orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, maxsus internat muassasalari faoliyatida huquqbuzarliklarni aniqlash;
- ✓ Normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish va nogironlar huquqlariga zid bo'lgan normalarni bartaraf etish bo'yicha parlamentga tavsiyalar kiritish;

- ✓ Maxsus hisobotlar tayyorlash va parlamentga kiritish orqali davlat siyosatining ochiqligini ta'minlash.

Ombudsman qoshida tashkil etilgan Inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha **Milliy preventiv mexanizm (NPM)** ham nogiron shaxslar yashaydigan yopiq muassasalarda (psixonevrologik internatlar, ijtimoiy xizmat markazlari) muntazam monitoring olib boradi.

Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz

O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga ixtisoslashgan davlat muassasasidir. Uning faoliyati barcha toifadagi fuqarolar, jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning ham huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Markazning o'rni – davlat siyosatini inson huquqlari yo'nalishida shakllantirishga ko'maklashuvchi, ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazuvchi, tahlil va monitoring olib boruvchi muhim tashkilot bo'lishidir.

Milliy markazning asosiy vazifalari:

1. Inson huquqlarini o'rganish va tahlil qilish;
2. Qonunchilikni takomillashtirishga ko'maklashish;
3. Davlat organlari bilan hamkorlik qilish;
4. Aholining huquqiy madaniyatini oshirish;
5. Monitoring va kuzatuv faoliyati
6. Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash
7. Ilmiy-amaliy faoliyat

Milliy markazning faoliyati nogironlar huquqlarini faqat himoya qilish emas, balki ularni targ'ib qilish, huquqiy siyosatni takomillashtirish va CRPD talablarini amaliyotga joriy etish bilan ham bog'liq.

Sud organlari

Sudlar nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda eng asosiy va yakuniy huquqiy himoya mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Ular

fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash, nizolarni hal qilish va davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlariga chek qo'yish orqali nogironlarning adolatga bo'lgan kirish imkonini ta'minlaydi. Sud jarayonida nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay sharoit yaratish, ular uchun tarjimon, surdotarjimon, psixologik yoki texnik yordam xizmatlari taqdim etilishi ularning teng ishtirokiga imkon beradi. Sud tizimi fuqarolarni himoya qilishning eng samarali vositasi bo'lib, nogironlarning ijtimoiy nafaqa, tibbiy xizmat, ta'lim, mehnat yoki boshqa sohalardagi huquqlari buzilganda ularni tiklashda markaziy rol o'ynaydi. Shuningdek, sud qarorlari orqali davlat idoralarning harakati ustidan nazorat amalga oshiriladi, bu esa nogironlar huquqlarini kafolatlashda qonun ustuvorligini ta'minlaydi.

Prokuratura organlari

Prokuratura nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda davlat nomidan nazorat qiluvchi organ sifatida muhim o'rin tutadi. Ularning faoliyati qonunlarning barcha hududlarda to'g'ri qo'llanishini ta'minlash, nogironlarning huquqlari buzilmasligi va ijtimoiy himoya masalalarida tartibga rioya qilinishini nazorat qilish bilan belgilanadi. Prokuratura turli tashkilotlar, ta'lim yoki tibbiyot muassasalarida nogiron shaxslarning ahvoli bo'yicha tekshiruvlar o'tkazishi, aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha taqdimnoma va protestlar kiritishi, mansabdor shaxslarning mas'uliyatini belgilashi mumkin. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning oila a'zolari murojaat qilgan taqdirda, prokuratura ularning shikoyatlarini ko'rib chiqadi, zarur bo'lsa, sudga da'vo kiritadi yoki boshqa organlarga majburiy ko'rsatmalar beradi. Shu tariqa prokuratura nogironlar huquqlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik, ularni himoya qiluvchi normalarning amalda bajarilishini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashda muhim nazorat institutidir.

3-§. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy mexanizmlari (Jamoatchilik nazorati, NNT faoliyati)

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlashda davlat institutlari bilan bir qatorda ijtimoiy mexanizmlar — **jamoatchilik nazorati** va **notijorat tashkilotlar (NNTlar)** faoliyati muhim o'rin tutadi. Bu ikki mexanizm nogironlar huquqlarining buzilishi ehtimolini kamaytirish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va davlat siyosatini takomillashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Jamoatchilik nazorati jamiyatning davlat organlari faoliyati ustidan mustaqil kuzatuv olib borish jarayonidir. U nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan sharoitlar, infratuzilmaning moslashuvi, ta'lim va tibbiy xizmatlarning sifati, davlat xizmatlarining ochiqligi va adolatliligini nazorat qilishga qaratilgan. Jamoatchilik nazorati mexanizmlari sifatida:

- OAV materiallari;
- blogerlar va faollar intervyulari;
- fuqarolik tashabbuslari;
- ochiq monitoringlar va jamoatchilik eshituvi muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat tomonidan ko'tarilgan muammolar amaliy choralar ko'rilishiga sabab bo'lib, nogironlar huquqlarini himoya qilish jarayonining shaffofligini oshiradi. Jamoatchilik nazorati davlat organlarining hisobdorligini kuchaytirib, nogironlarning ehtiyojlari bo'yicha real ahvolni namoyon qiladi.

O'zbekistonda jamoatchilik nazorati **“Jamoatchilik nazorati to'g'risida”**gi Qonun (2018-y.) bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning davlat organlari ustidan kuzatuv olib borish vakolatlarini aniq belgilab beradi.

Mazkur qonunga ko'ra, jamoatchilik nazorati quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;
- davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;

- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o'rganish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.

Qonun jamoatchilik nazoratining asosiy tamoyillari sifatida oshkoralik, mustaqillik, erkin fikr bildirish va davlat organlari tomonidan axborot berish majburiyatini belgilagan. Shu sabab, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining buzilishiga oid har qanday signal befarq qoldirilmasligi lozim.

Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTlar) esa nogironligi bo'lgan shaxslar manfaatlarini himoya qiluvchi ijtimoiy institutlar sifatida faoliyat yuritadi. Ular nogiron shaxslar bilan bevosita ishlashi, ularning huquqiy savodxonligini oshirishi, bepul maslahatlar berishi, ijtimoiy xizmatlar sifatini monitoring qilish, statistik va tahliliy hisobotlar tayyorlash orqali davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. NNTlar nogiron shaxslarning real ehtiyojlari va kundalik muammolaridan kelib chiqib, qonunchilikka tegishli takliflar ishlab chiqadi, davlat organlari bilan hamkorlikda seminarlar, treninglar o'tkazadi, inklyuziv jamiyatni shakllantirishga qaratilgan axborot kampaniyalarini tashkil qiladi.

Ularning roli quyidagicha kengaygan holda namoyon bo'ladi:

1. Advokasiya (manfaatlarni himoya qilish).

NNTlar nogironligi bo'lgan shaxslar duch kelayotgan tizimli muammolarni o'rganib, ularni davlat siyosatiga kiritish uchun tashabbuslar bilan chiqadi. Qonun loyihalarini muhokama qilish, yangi tartib va xizmatlarni joriy etishga doir takliflar berish ham NNTlarning asosiy funksiyasidir.

2. Huquqiy yordam va maslahat.

Ko'plab NNTlar bepul yuridik yordam, huquqiy konsultatsiya, sudga murojaat qilishda ko'mak, ariza va shikoyatlarni rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Bu ko'mak ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslar uchun juda muhim, chunki ular ko'pincha huquqiy jarayonlarga kirishishda qiyinchiliklarga duch keladi.

3. Reabilitatsiya va qo'llab-quvvatlash xizmatlari.

NNTlar tomonidan psixologik yordam, fizioterapiya, ijtimoiy adaptatsiya, bandlik bo'yicha treninglar, ko'nikma o'rgatish markazlari tashkil qilinadi. Davlat xizmatlari mavjud bo'lsa-da, NNTlarning moslashgan, individual yondashuvga asoslangan xizmatlari ko'pincha yanada samaraliroq bo'ladi.

4. Ijtimoiy loyiha va grantlar.

Xorijiy donorlar, davlat grantlari va insonparvarlik tashkilotlari orqali moliyalashtiriladigan loyihalar orqali nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maktablar, kurslar, reabilitatsiya markazlari, sport musobaqalari, madaniy tadbirlar tashkil qilinadi.

5. Huquqbuzarliklar bo'yicha monitoring.

Ko'plab NNTlar nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda, mehnat bozorida, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida duch kelayotgan diskriminatsiya holatlarini aniqlab, ularni rasmiy organlarga yetkazadi va jamoatchilikka ma'lum qiladi.

Xulosa qilganda, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro va milliy huquqiy asoslar o'zaro uzviy bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlar davlatlarga nogironlarning teng huquqli va inklyuziv jamiyatda yashashini ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Shu bilan birga, milliy qonunchilikda, xususan, O'zbekistonning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonuni ushbu prinsiplarni amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy baza yaratadi.

Davlat mexanizmlari nogiron shaxslarning huquqlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Ombudsman inson huquqlari sohasidagi nazorat va himoya faoliyatini olib boradi, Milliy markaz esa nogironlarga ijtimoiy xizmatlar va qo'llab-quvvatlashni tashkil etadi. Sud va prokuratura esa huquqiy himoyani ta'minlab, qonun buzilishlari yuzasidan ta'sir ko'rsatadi. Ushbu organlarning faoliyati nogironlarning huquqlarini samarali ta'minlash va himoya qilishda asosiy omildir.

Shuningdek, ijtimoiy mexanizmlar, xususan, jamoatchilik nazorati va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) nogironlar huquqlarining amalga oshirilishini kuzatib borishda, huquqiy xabardorlikni oshirishda va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Ular davlatning siyosat va amaliyotlarini tanqidiy baholab, nogironlarning haq-huquqlarini himoya qilishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishda huquqiy asoslar, davlat mexanizmlari va jamoatchilik faoliyati o'zaro uzviy bog'langan tizimni tashkil etib, inklyuziv va adolatli jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.